

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

QURBANQULOVA NAZOKAT QUTBIDDINOVNA

**SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYASINI SAMARALI
TASHKIL ETISH YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Qurbanqulova Nazokat Qutbiddinovna

Sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish yo‘llari3

Курбанкулова Назокат Кутбиддиновна

Пути эффективной организации финансовых страховых компаний27

Kurbankulova Nazokat Kutbiddinovna

Ways to effectively organize finances of insurance companies53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

QURBANQULOVA NAZOKAT QUTBIDDINOVNA

**SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYASINI SAMARALI
TASHKIL ETISH YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3260 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaydarov Nizomiddin Xamroyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Raya Xojabayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Imomov Umid G'ayratjonovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik olyi maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16 soat 11 kungi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100000, Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmikengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 18 raqamli bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A. Tel.: 99871 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 13 11 kuni tarqatildi.

(2025-yil 13 11 kungi 81 - raqamli reestr bayonnomasi.



T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.N. Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyoti va insoniyat hayoti risklardan holi emas. Shunday sharoitda global miqyosda sug‘urta bozorini rivojlantirish, sug‘urt kompaniyalari moliyasini samarali tishkil etish uzlusiz jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro hisobotlarga ko‘ra, “Jahon sug‘urta bozori 2023-yilda 7,5 foizga o‘sdi, bu 2006-yildan beri eng yuqori o‘sish sur’atidir. 2024-yilda global sug‘urta bozorining o‘sish sur’ati qariyb 5,5%ni tashkil etdi. 2034-yilga borib sug‘urta mukofotlari hajmi dunyo bo‘yicha 11,173 trillion yevroga yetishi kutilmoqda”.¹ Bunda o‘sish asosan hayot sug‘urtasi segmentida kuzatilishi, ayniqsa, Osiyo qit’asida o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

Jahonda sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish orqali sug‘urta bozorini rivojlantirishga doir qator yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sug‘urta kompaniyalari investitsion jozibador-ligini oshirish orqali bozor kapitallashuvini oshirish imkoniyatlari, fond bozori rivojlangan sharoitda hayot sug‘urta polisini sotib olgan shaxslarning investor sifatida aksiyalar bozoridagi faolligi tadqiqi, sug‘urta mukofotlarini jamg‘arish, sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va sug‘urta majburiyatlarini bo‘yicha to‘lovlar optimal nisbatini prognoz qilish, sug‘urta majburiyatlarining uzoq muddatli tabiatini va da’vo to‘lovlar bilan bog‘liq noma’lumlik mavjudligi sharoitida sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash, sug‘urta bozori regulyatori talablarining sug‘urta kompaniyalari investitsion strategiyasiga ta’siri, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida sug‘urta kompaniyalarining yashil va raqamli transformatsiyasi masalalariga doir xalqaro tadqiqotlar bugungi kunda alohida ajralib turibdi. Shuningdek Solvency II talablari asosida sug‘urta kompaniyalari kapitali yetarliligini baholash, risklarni boshqarish strategiyalari asosida aktiv va majburiyatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish, investitsiya portfelini ESG standartlariga moslashtirish, sug‘urta bozorida InsurTech texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llash, iqlim o‘zgarishlari va global isish sharoitida sug‘urtaga doir moliyaviy munosabatlar noaniqligi masalalari jahon miqyosida tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta kompaniyalari soni pasayish tendensiyasiga egaligi, aksariyat sug‘urta kompaniyalari o‘z aksiyalarini fond bozorida ochiq yoki ommaviy joylashtirishga intilmasligi, dividend siyosatiga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi tufayli sug‘urta kompaniyalari investitsion jozibadorligi umumiy nuqtai nazardan pastligi, respublikamizdag‘i jamiki sug‘urta kompaniyalari bozor kapitallashuvi hajmi xorijiy davlatlardagi bitta sug‘urta kompaniya bozor kapitallashuvi miqdoridan ham pastligi, global sug‘urta bozoridagi keskin raqobat sharoitida milliy sug‘urta kompaniyalari raqobatdoshlik darajasi pastligicha qolayotganligi, fond bozori rivojlanmagan sharoitda sug‘urta kompaniyalari investitsion faolligining ham pastligi, xalqaro amaliyotda sug‘urta kompaniyalari asosiy foydasi investitsion faoliyat hisobiga shakllanishiga

¹ Allianz Global Insurance Report 2024: Transformative Years. https://www.allianz-asiapacific.com/news/2024-05-24-allianz-global-insurance-report-2024-transformative-years.html?utm_source

qaramasdan, milliy sug‘urta kompaniyalari foydasi asosan sug‘urta hodisasi ro‘y bermagan sharoitda sug‘urta mukofotining foydaga o‘tkazilishi hisobiga shakllanayotganligi, aholining sug‘urta bozoriga ishonchi pastligi kabi muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Mazkur jihatlar o‘z-o‘zidan mamlakatimizda bu borada tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagagi «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4412-son qarori, 2021-yil 23-oktabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlanadirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5265-son qarori, 2024-yil 1-martdagagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarori va boshqa ushbu sohadagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda va xorijda sug‘urta bozorini rivojlanirishga bo‘lgan zarurat asosida sug‘urta kompaniyalarini moliyasisini samarali tashkil etishga doir tadqiqotlar doimiy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Bunda xorijlik iqtisodichi olimlardan D.F.Babbel, A.M.Santomero, M.J.Browne, J.M.Carson, R.E.Hoyt, J.D.Cummins, M.A.Weiss, S.P.D’Arcy, R.W.Gorvett, D.Cavapozzi, E.Trevisan, G.Weber, M.Eling, H.Schmeiser, Han Hou, Su-Yin Cheng, S.E.Harrington, G.R.Niehaus, Jane W.Murigu, Olivieri, Annamaria, E.Pitacco, D.A.Zetsche, R.P.Buckley, D.W.Arner, J.N.Barberis; Stefania Sylos Labini, Pasquale di Biase, Elisabetta D’Apolito; Caterina Di Tommaso, Maria Mazzuca, Vincenzo Pacelli; Bo Yang, Yizhi Wang, Dingjun Yao, Yueyang Wang, Xin Xu; Ning Zhang, Yabei Li, Hao Li; Claudia Ceci, Katia Colaneri, Alessandra Cretarola; Caibin Zhang, Zhibin Liang ilmiy tadqiqot ishlarini alohida e’tirof etish lozim². Bunda sug‘urta kompaniyalari moliyasida

² Babbel, D. F., & Santomero, A. M. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process. // Journal of Risk and Insurance, 64(2), 1997. - P. 231-270.; Browne, M. J., Carson, J. M., & Hoyt, R. E. Dynamic Financial Models of Life Insurers. // North American Actuarial Journal, 5(2), 2001. – P. 11-26.; Cummins, J. D., & Weiss, M. A. The Global Market for Reinsurance: Consolidation, Capacity, and Efficiency. // Brookings-Wharton Papers on Financial Services, 2000. – P. 159-209.; Cummins, J. D., & Weiss, M. A. Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector. // Journal of Risk and Insurance, 80(3), 2013. – P. 489-528. D’Arcy, S.P., & Gorvett, R.W. The Use of Dynamic Financial Analysis to Determine Whether an Optimal Growth Rate Exists for a Property-Liability Insurer. // Journal of Risk and Insurance, 71(4), 2004. – P. 583-615.; Danilo Cavapozzi, Elisabetta Trevisan, Guglielmo Weber. Life insurance investment and stock market participation in Europe. Advances in Life Course Research. Volume 18, Issue 1, March 2013, - P. 91-106. Eling M., & Schmeiser H. Insurance and the Credit Crisis: Impact and Ten

raqamli transformatsiya, yashil va barqaror rivojlanishda sug‘urtaning roli, risklarni boshqarish va investitsion strategiya muvozanati masalalari alohida o‘rganilganligiga guvoh bo‘shish mumkin.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.X.Xaydarov, X.M.Shennayev, I.X.Abdurahmonov, I.G‘.Kenjayev, N.Abdullayeva, M.Aliqulov, M.Hakimzoda, K.M.Ikramova, N.A.Mavru洛ova kabilar tadqiqot ishlarida sug‘urta kompaniyalari moliyasiga doir masalalar tadqiq qilingan³.

Yuqoridagilardan sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish, sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini samarali tashkil etish, sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta mahsulotlarini individuallashtirish, sug‘urta bozorini va sug‘urta tarmog‘ini rivojlanirish muuammolariga doir tadqiqotlar respublikamizda amalga oshirilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Lekin sug‘urta kompaniyalari moliyasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida respublikamizda o‘rganilmagan bir vaqtida ushbu tadqiqot bo‘shliqni to‘ldiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya,

Consequences for Risk Management and Supervision. // Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice, 35(1), 2010. – P. 9-34.; Han Hou, Su-Yin Cheng. The dynamic effects of banking, life insurance, and stock markets on economic growth. // Japan and the World Economy. Volume 41, March 2017. – P. 87-98.; Harrington, S. E., & Niehaus, G. R. Risk Management and Insurance. McGraw-Hill, 2003.; Murigu, Jane W. The determinants of financial performance in general insurance companies in Kenya. University of Nairobi, 2014.; Olivieri, Annamaria, and Ermanno Pitacco. Introduction to insurance mathematics: technical and financial features of risk transfers. Springer, 2015. Zetsche D.A., Buckley R.P., Arner D.W., & Barberis J.N. From FinTech to TechFin: The Regulatory Challenges of Data-Driven Finance. // New York University Journal of Law & Business, 14(2), 2017. – P. 393-446.; S.S.Labini, Pasquale di Biase, E.D’Apolito. Sustainability strategy and financial performance in the insurance company. // International Review of Economics & Finance. Volume 98, March 2025.; C.Di Tommaso, M.Mazzuca, V.Pacelli. Does SDG-13 disclosure impact the performance of insurance companies? // Research in International Business and Finance. Volume 77, Part A, May 2025.; B.Yang, Y.Wang, D.Yao, Y.Wang, X.Xu. The equilibrium strategy of insurance companies’ dividends and reinsurance games. // Economics Letters. Volume 245, December 2024.; N.Zhang, Y.Li, H.Li. Regulatory penalties and the growth of the insurance companies: Empirical evidence from China. // Finance Research Letters. Volume 75, April 2025.; C.Ceci, K.Colaneri, A.Cretarola. Optimal reinsurance and investment under common shock dependence between financial and actuarial markets. // Insurance: Mathematics and Economics. Volume 105, July 2022, Pages 252-278. C.Zhang, Z.Liang. Optimal time-consistent reinsurance and investment strategies for a jump-diffusion financial market without cash. // The North American Journal of Economics and Finance. Volume 59, January 2022.

³ Xaydarov N.X. Sug‘urtaning kapital bozorini rivojlanirishdagi o‘rni va ahamiyati. // Raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital bozorini rivojlanirish va boshqarish: muammolar va zamonaviy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy onlayn-oflayn konferensiya materiallari – Toshkent, 2024. – B. 4-11.; Shennayev X.M. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini rivojlanirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 84 b.; Abduraxmonov I.X. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta tarmoqlarini rivojlanirishning konseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. – 78 b.; Kenjaev I.G‘. Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyati sifat va samaradorligini oshirish yo‘llari. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2025 yil 1-son. – B. 332-340.; Abdullaeva N. Sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. Toshkent, 2022. – 59 b.; Aliqulov M. Sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari. PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. Toshkent, 2022. – 59 b. Hamraeva F.Sh. O‘zbekistonda majburiy sug‘urta turlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2023. – 60 b.; Hakimzoda M.Yu. Investitsiya loyiha risklarini sug‘urtalashni takomillashtirish istiqbollari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2023. – 55 b.; Ikramova K.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta takliflarini shaxsiylashtirish texnologiyalari. // Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. 2024-yil, 3-son. – B. 194-200.; Mavru洛ova N.A. Umumiy sug‘urta sohasini rivojlanirish yo‘nalishlari. DSc ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2023. – 88 b.

bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sug‘urta kompaniyalari moliyasining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan o‘rganish;

sug‘urta kompaniyalarida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimini tadqiq qilish;

xorijiy sug‘urta kompaniyalarida moliyaviy munosabatlar ko‘lami va tashkiliy xususiyatlarini tahlil qilish;

sug‘urta kompaniyalarining daromad va xarajatlari tahlilini amalga oshirish;

sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati tahlilini o‘tkazish;

sug‘urta kompaniyalarining foyda taqsimoti va dividend to‘lovlarini tahlil qilish;

O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari moliyasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish orqali biznes rivojini ta’minlash yo‘llariga doir taklif va tavsiyalar ilgari surish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari olingan faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sug‘urta kompaniyalari moliyasida yuzaga keladigan moliviy munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyoslash, kuzatish, deduksiya, induksiya, analiz, sintez, statistik tahlil, tanlanma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

investitsiyalarni banklararo taqsimlashda bitta bankka qo‘yiladigan depozit hajmining yuqori chegarasi 200 million so‘m, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltiriladigan mablag‘larni qimmatli qog‘oz turi va emitentlar kesimida taqsimlashda bitta emitent korporativ obligatsiyalariga yo‘naltiriladigan investitsiya hajmi yuqori chegarasi 200 million so‘m etib belgilash orqali investitsion faoliyatni diversifikatsiyalash asoslangan;

sug‘urta mahsulotlari kesimida sotilgan sug‘urta polislari hajmi, risk darajasi va muddatiga asosan sug‘urta hodisalarining yuzaga kelish ehtimolligini aniqlagan holda zanjir-pog‘ona usuli yordamida sug‘urta zaxiralarini yaratish taklif etilgan;

bozor talabi asosida aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali oshirib borilishini ta’minlash maqsadida investitsion jozibadorlikni oshirish va aksiyadorlar manfaatdorligini ta’minlashga qaratilgan choraklik dividendlarga asoslangan dividend siyosatini yuritish taklif etilgan;

sug‘urta kompaniyasi to‘lovga qobiliyatatliligini ta’minlash maqsadida oldingi chorakdagi o‘rtacha oylik to‘lovlar summacining 10 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda pul mablag‘lari (bankdagi hisobraqamdag‘i pullar, qoplash muddati bir oydan kam bo‘lgan depozitlar)ni saqlash lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug‘urta kompaniyalari moliyasi emission, sug‘urta xizmatlari ko‘rsatish va investitsion faoliyat asosida o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishi zarurligi aniqlangan;

sug‘urta kompaniyalarining muntazam dividendlarga asoslangan investitsion jozibadorlik asosidagi emissiya faoliyatni kengaytirishga va global raqobatdoshlikka xizmat qilishi aniqlangan;

mamlakatdagi fond bozorining rivojlanishi sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatining diversifikatsiyalashuvini ta’minlashi asoslab berilgan;

sug‘urta majburiyatlarini yuzaga kelish vaqtini va to‘lov miqdori noaniqligidan kelib chiqqan holda sug‘urta kompaniyalari moliyasida sug‘urta zaxiralariga e’tibor qaratilishi lozimligi eng asosiy jihatlardan biri ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma’lumotlarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Korporativ axborotlar yagona portalı, “Toshkent” Respublika fond birjasi, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi, sug‘urta kompaniyalari hisobotlari, shuningdek, Global sug‘urta bozori hisobotlari, Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi, Companiesmarketcap.com internet portalı, Forbes moliyaviy-iqtisodiy jurnali, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari moliyasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini kuchaytirish, sug‘urta kompaniyalari faoliyatining tashkilotchilik hamda amaliy mexanizmlarini yaxshilash va bu orqali sug‘urta bozorini rivojlantirish, milliy sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish va sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlarda hamda sug‘urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari bakalavr va magistratura talabalari uchun “Sug‘urta ishi”, “Korporativ moliya”, “Sug‘urta bozori” kabi fanlarning mavzularini takomillashtirishda qo‘llash imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

depozitlarga investitsiyalarni banklararo taqsimlash, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltiriladigan mablag‘larni qimmatli qog‘oz turi va emitentlar kesimida taqsimlashni o‘z ichiga olgan diversifikatsiyalash amaliyotini 2025-yil uchun sug‘urta kompaniyasi investitsiya siyosatiga kiritish taklifi Mazkur taklif asosida

bitta bankka qo‘yiladigan depozit hajmining yuqori chegarasi 200 million so‘m, bitta emitent korporativ obligatsiyalariga yo‘naltiriladigan investitsiya hajmi 200 million so‘m etib belgilandi (APEX Insurance AJ 2025-yil 12-iyundagi №25-3/12 sonli ma’lumotnomasi). Natijada diversifikatsiya hisobiga investitsion faoliyat bilan bog‘liq xatarlar minimallashtirildi.

sotilgan sug‘urta polislari bo‘yicha sug‘urta hodisalarining yuzaga kelish ehtimolligini aniqlagan holda zanjir-pog‘ona usuli yordamida sug‘urta zaxiralarini yaratish taklifi. Mazkur taklif asosida sug‘urta mahsulotlari kesimida sotilgan sug‘urta polislari hajmi, risk darajasi va muddatidan kelib chiqqan holda zanjir-pog‘onaga asoslangan sug‘urta zaxiralarini yaratishga o‘tildi (APEX Insurance AJ 2025-yil 12-iyundagi №25-3/12 sonli ma’lumotnomasi). Natijada sug‘urta zaxiralarining manzilliligi, asosliligi ta’minlandi va sug‘urta hodisasi yuz berganda qaytarish muddati qisqardi;

bozor talabi asosida aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini oshirib borish maqsadida investitsion jozibadorlikni ta’minalash va aksiyadorlar manfaatdorligini ta’minalashga qaratilgan choraklik dividendlarga asoslangan dividend siyosatini yuritish taklifi. Mazkur taklif asosida aksiyadorlik jamiyati choraklik dividend to‘lovleri amaliyotiga o‘tdi (APEX Insurance AJ 2025-yil 12-iyundagi №25-3/12 sonli ma’lumotnomasi) va ustav kapitali 710 milliard so‘mga yetkazildi;

aksiyadorlik jamiyati to‘lovga qobiliyatligini ta’minalash maqsadida oldingi chorakdagi o‘rtacha oylik to‘lovlar summacing 10 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda pul mablag‘lari (bankdagi hisobraqamdagisi pullar, qoplash muddati bir oydan kam bo‘lgan depozitlar)ni saqlash taklifi (APEX Insurance AJ 2025-yil 12-iyundagi №25-3/12 sonli ma’lumotnomasi) Mazkur taklif asosida 2025-yil II chorakda aksiyadorlik jamiyati to‘lovga qobiliyatlichkeit marjasining yetarliligi sug‘urta bozorida eng yuqori 1,7 miqdorda shakllandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan hamda ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, sakkizta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbliji va ahamiyati xalqaro va milliy miqyosda asoslangan, tadqiqotning maqsadi qo‘yilib, asosiy vazifalar belgilab olingan, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflangan, milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga monandligi aniqlangan. Shuningdek, kirishda tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati bayon etilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Sug‘urta kompaniyalari moliyasi nazariy va tashkiliy asoslari**”, deb nomlangan birinchi bobida sug‘urta kompaniyalari moliyasining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganib chiqilgan, sug‘urta kompaniyalarida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimi nazariy va tashkiliy jihatdan tahlil qilingan, xorijiy sug‘urta kompaniyalarida moliyaviy munosabatlar ko‘lami va tashkiliy xususiyatlari tadqiq qilingan. Bob oxirida tegishli nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatimizda sug‘urta kompaniyalari faoliyatida raqamlashtirish jarayonining xorijiy raqobatchilarga nisbatan ancha sust ketayotganligi, aholi va biznes vakillarining sug‘urta tizimiga ishonchi pastligi bois asosiy sug‘urta mukofotlari majburiy sug‘urta hisobiga shakllanayotganligi, sug‘urta badallarini to‘lab berishda haddan tashqari byurokratiyalarning mavjudligi, xorijiy kompaniyalarning milliy sug‘urta kompaniyalariga ishonchi pastligi bois qayta sug‘urtalash amaliyotlarining xorijiy sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotganligi, fond bozoridagi emission, investitsion va risklarni boshqarish borasidagi faoliyatlari yuqori darajada emasligi kabilar qator-yillardan buyon muammoligicha qolmoqda.

Sug‘urta kompaniyalari moliyasi moliyaviy boshqaruvning keng doirasida o‘ziga xos va murakkab soha hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyalari milliy va global iqtisodiyotda risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlik va investitsiya imkoniyatlarini taqdim etish orqali muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tashkilotlarning moliyaviy operatsiyalari boshqa moliyaviy institutlardan farq qiladi, chunki ular sug‘urta mukofotlarini jalb qilish (yig‘ish), zaxiralarni boshqarish va da’volarni to‘lash bilan shug‘ullanadi. Sug‘urta kompaniyalari moliya tizimining, moliya bozorining ajralmas qismidir, ular risklarni jamlash, jismoniy shaxslar va korxonalar uchun moliyaviy himoya taqdim etish orqali vositachilik qiladi. Ularning roli faqat riskni kamaytirish, boshqarish yoki o‘tkazish bilan cheklanmaydi. Sug‘urta kompaniyalari sug‘urta mukofotlari hisobiga shakllangan mablag‘larni turli moliya bozorlariga investitsiya qilib, kapital shakllanishi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Umuman sug‘urta kompaniyalarining moliya tizimidagi asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni alohida ko‘rsatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining moliya tizimidagi asosiy funksiyalari⁴

Funksiya nomlanishi	Funksiya tavsifi
Riskni zimmaga olish	Sug‘urtalanuvchilardan risklarni yig‘ib, individual xavflarni kamaytirish
Iqtisodiyotni mablag‘ bilan ta’minlash	Daromad olish maqsadida bo‘lsada investitsion faoliyat vositasida iqtisodiyotni mablag‘ bilan ta’minlash
Bilvosita moliyaviy vositachilik	Jamg‘arilgan sug‘urta mukofotlarini moliya bozoriga investitsiya qilish orqali foyda olish
Iqtisodiyotdagи barqarorlikni ta’minlash	Zararlarni kompensatsiyalash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash
Kapital shakllanishi	Jamg‘armalarni samarali investitsiyalarga yo‘naltirish

⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Sug‘urta kompaniyalari kelajakdagi da’vo majburiyatlarini bajarish uchun zaxiralarni shakllantirishi ham ular faoliyatidagi majburiy talablardan va o‘ziga xos faoliyat xususiyatlaridan biridir. Bu zaxiralarni boshqarish sug‘urta kompaniyalari moliyasining asosiy tarkibiy qismida alohida yondashish talab etiladigan masalalardan biridir. Unda kelajakdagi majburiyatlarni baholash va bu majburiyatlarni qoplash uchun aktivlarni taqsimlash muhim o‘rin tutishini ta’kidlashimiz lozim. D’Arcy va Gorvett “zaxiralarni hisoblashda qo’llaniladigan turli metodlarni, shu jumladan zanjirli pog‘ona usulini va Bornhuetter-Ferguson texnikasini o‘rganib, zaxira yetarlicha bo‘lishining sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta’siri”ni tadqiq qilishgan⁵. Bunda zaxiralarni shakllantirish sug‘urta kompaniyasining lahzalik moliyaviy barqarorligini ta’minalash bilan birga sug‘urta hodisasi tufayli sug‘urtalanuvchining zararini ham o‘z vaqtida ta’minalash muhimligi sharoitida sug‘urta kompaniyasiga ishonch shubhasiz tarzda ortishini alohida qayd etib o‘tamiz.

Kapital yetarliligi sug‘urta moliyasining muhim jihatni bo‘lib, sug‘urta kompaniyalariga zararlarni qoplash va o‘z majburiyatlarni bajarish uchun yetarli resurslarga ega bo‘lishini ta’minalaydi. Bunda avvalo ustav kapitali bilan bog‘liq talablar davlat tomonidan belgilab qo‘yilishini alohida keltirishimiz lozim. Ya’ni “sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori qonunchilikda belgilanadi”⁶. Sug‘urta kompaniyalari ustav kapitalini shakllantirish real korxonalaridan farqli ravishda muassislar tomonidan kiritilgan pul mablag‘laridan tashkil topishi belgilab qo‘yilgan.

Global raqobatdoshlik, iqtisodiy islohotlardan kelib chiqib O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari (sug‘urtalovchilar, qayta sug‘urtalovchilar) ustav kapitaliga minimal talab muntazamlik asosida oshirib kelinmoqda. Sug‘urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdori bo‘yicha qonunchilik talabi 2008-2014-yillar davomida muntazam oshirilgan. So‘ngra 2018-yildagi o‘zgarish O‘zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish munosabati bilan yevro ekvivalentida belgilangan ustav kapitaliga minimal talab milliy valyutadagi qiymatga o‘zgartirilgan edi⁷. Shuningdek 2020-yil 1 iyul va 2022-yil 1-iyulda sug‘urta kompaniyalari ustav kapitali eng kam miqdori bo‘yicha o‘zgarishlar esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4412-son qaroriga asosan belgilangan⁸.

Sug‘urta kompaniyalari ustav kapitali minimal miqdorlaridagi navbatdagi oshirishlar ham qonunchilik bilan belgilab qo‘yilgan. Bunda ustav kapitali eng kam miqdori o‘zgarishi quyidagicha (2-jadval).

⁵ D’Arcy S.P., Gorvett R.W. The Use of Dynamic Financial Analysis to Determine Whether an Optimal Growth Rate Exists for a Property-Liability Insurer. // Journal of Risk and Insurance, 2004. – P. 583-615.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son Qonuni 40-modda, 23.11.2021-yil.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ba’zi hujjalari o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida»gi PF-5197-son Farmoni, 29.09.2017-yil.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4412-son qarori, 02.08.2019-yil.

2-jadval

Sug‘urtalovchilarning tabaqlashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari, mln so‘mda⁹

T/r	Sug‘urta faoliyati turlari	1-oktabrdan		
		2025-yil	2027-yil	2029-yil
1.	Umumiy sug‘urta sohasida ixtiyoriy sug‘urta	35 000	45 000	60 000
2.	Umumiy sug‘urta sohasida majburiy sug‘urta	50 000	75 000	100 000
3.	Hayotni sug‘urta qilish sohasida ixtiyoriy sug‘urta	25 000	30 000	35 000
4.	Hayotni sug‘urta qilish sohasida majburiy sug‘urta	40 000	45 000	50 000
5.	Faqat qayta sug‘urta	80 000	100 000	120 000

Bu borada tartibga solish tizimlari, masalan, Yevropa Ittifoqidagi Solvency II sug‘urta kompaniyalari risk profiliga asoslangan minimal kapital talablarini belgilashiga ham guvoh bo‘lis mumkin. Eling va Schmeiser kapital talablarining sug‘urta kompaniyalari moliyaviy natijalariga ta’sirini tahlil qilib, “yuqori kapital darajalari moliyaviy barqarorlikni oshirishi, ammo rentabellikni cheklashini aniqlashgan”¹⁰. Sug‘urta mukofotlari asosida faoliyat yurituvchi sug‘urtalovchilar ustav kapitali asosida shakllangan mablag‘lardan ham investitsion maqsadlarda samarali foydala olishmasa, o‘z-o‘zidan yuqori kapital sharoitida rentabellik ko‘rsatkichlari pasayishi bunga sabab bo‘lishini shu o‘rinda ta’kidlashimiz lozim.

XXI asrda, xususan so‘nggi o‘n-yillikda moliyaviy texnologiyalarning faol rivojlanish fazasiga kirganligi sug‘urta kompaniyalari moliyasida ham moliyaviy operatsiyalarni tubdan o‘zgartirdi. Bunda riskni baholash, sug‘urta mahsuloti narxini belgilash va sug‘urta hodisasi yuz bermanida da’vo boshqaruvini samarali tashkil etish kabilarga imkon berdi. Shuningdek, amaliyotga InsurTech atamasining kirib kelishi ham bevosita sug‘urtada moliyaviy texnologiyalar qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liq. Natijada sug‘urta kompaniyalari tomonidan texnologik kompaniyalar bilan, IT mutaxasislar bilan moliyaviy munosabatlardan doirasi anchayin kengaydi.

Xorijiy sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy munosabatlari ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bunda ularning faoliyat modellari ham muhim rol o‘ynaydi. Asosan, xorijiy sug‘urta kompaniyalari qabul qiluvchi mamlakat qonunchiligi belgilagan turli darajadagi nazorat, kapital talablari va bozorga kirish shartlarini o‘z ichiga olgan murakkab tizimda ishlaydi. Bu kompaniyalar ko‘pincha hayot sug‘urtasidan tortib mol-mulk va javobgarlik sug‘urtasigacha bo‘lgan keng ko‘lamli sug‘urta mahsulotlarini taklif qiladilar. Mazkur jihatlar ularning faoliyati asosini tashkil etuvchi va risklarni o‘tkazish mexanizmlarini ta’minlovchi moliyaviy munosabatlarni atroflicha tushunishni talab qiladi.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarori, 01.03.2024-yil.

¹⁰ Eling M., Schmeiser H. Insurance and the Credit Crisis: Impact and Ten Consequences for Risk Management and Supervision. //Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice, 2010.35(1). – P. 9-34.

Xorijiy sug‘urta kompaniyalari odatda banklar, investitsiya fondlari va qayta sug‘urtalash kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi, ularning har biri moliyaviy strategiyalarini va operatsion resurslarni takomillashtirishda o‘ziga xos muhim rol o‘ynaydi. Bu hamkorliklar natijasida yuzaga keladigan munosabat sug‘urtalovchilarga kapital taqsimotini optimallashtirish va risk portfelini diversifikatsiyalash imkonini beradi, bu esa ularning bozor o‘zgarishlariga nisbatan moliyaviy barqarorligini oshiradi. Xorijiy sug‘urta kompaniyalari qo‘llaydigan investitsiya strategiyalari odatda, sotilgan sug‘urta mahsuloti maqsadlari va daromadni keng iqtisodiy vaziyatga moslashtiruvchi ko‘p tomonlama yondashuvga asoslanadi.

Companiesmarketcap.com internet portali tahlillariga ko‘ra, 2025-yil 17-fevral holatiga ko‘ra bozor kapitallashuviga ko‘ra AQShdagi UnitedHealth sug‘urta kompaniyasi 481,77 milliard AQSh dollariga teng kapitallashuv bilan dunyoda birinchi raqamli sug‘urta kompaniyasi bo‘lib turibdi (3-jadval). UnitedHealth sug‘urta kompaniyasi aynan hayot va umumiy sug‘urta bo‘yicha 100 milliondan ortiq mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi eng yirik sug‘urtalovchi sifatida qator-yillardan buyon o‘zini namoyon qilib kelmoqda.

3-jadval

Bozor kapitallashuvi bo‘yicha eng yirik sug‘urta kompaniyalari, 2025-yil 17 fevral holatiga¹¹

Nº	Kompaniya nomi	Bozor kapitallashuvi, mlrd \$ da	Aksiya bahosi, \$ da	Joylashgan mamlakat
1	UnitedHealth	481.77	523.51	AQSh
2	Progressive	153.83	262.60	AQSh
3	Allianz SE	130.69	338.44	Germaniya
4	China Life Insurance	130.33	5.55	Xitoy
5	Ping An Insurance	121.65	7.15	Xitoy
6	Marsh & McLennan Companies	112.38	228.83	AQSh
7	Chubb	105.99	264.52	Shveysariya
8	Elevance Health	90.27	389.25	AQSh
9	Zurich Insurance Group	90.18	626.30	Shveysariya
10	AXA	87.67	39.42	Fransiya
11	Aon	83.69	386.99	Buyuk Britaniya
12	Arthur J. Gallagher & Co.	80.37	321.50	AQSh
13	Cigna	80.03	292.32	AQSh
14	AIA	76.82	7.21	Gongkong
15	Munich RE (Münchener Rück)	73.00	545.80	Germaniya
16	Tokio Marine	65.47	33.89	Yaponiya
17	MetLife	56.30	81.70	AQSh
18	Life Insurance Corporation of India	55.17	8.72	Hindiston
19	The Travelers Companies	54.02	238.30	AQSh
20	Generali	51.58	33.56	Italiya

Keyingi o‘rinni AQShda avtosug‘urta va boshqa mol-mulklarni sug‘urtalash bilan shug‘ullanuvchi Progressive sug‘urta kompaniyasi 153,83 milliard AQSh


¹¹ <https://companiesmarketcap.com/insurance/largest-insurance-companies-by-market-cap/>

dollariga teng bozor kapitalluvi bilan egallagan. Lekin 2025-yil 17-fevral holatiga mazkur kompaniyaning bozor kapitallashuvi UnitedHealth kompaniyasi bozor kapitallashuviga nisbatan 3,13 baravar past. Umuman bozor kapitallashuvi bo'yicha TOP-20 ta kompaniyaning sakkiz nafari nafari AQShda, to'rt nafari Xitoyda, ikki nafari Shveysariyada, ikki nafari Germaniyada va yana 6 nafari Fransiya, Buyuk Britaniya, Gonkong, Italiya, Hindiston hamda Yaponiyada ro'yxatdan o'tgan kompaniyalardir.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobiga "Sug'urta kompaniyalari moliyasining amaldagi holati tahlili", deya nomlanib, unda sug'urta kompaniyalarining daromad va xarajatlari tahlili amalga oshirilgan, investitsion faoliyat tahliliga e'tibor qaratilgan, shuningdek sug'urta kompaniyalarida foyda taqsimoti va dividend to'lovleri tahlil qilingan. Sug'urta kompaniyalari moliyasidagi amaldagi holat tahliliga doir tahlillar asosida bob yakunida xulosalar shakllantirilgan.

Sug'urta kompaniyalari moliyasining amaldagi holatini tahlil qilish, ularning iqtisodiy barqarorligini va samaradorligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega. 2023 va 2024-yillar uchun majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta va umumiy sug'urta mukofotlari tahliliga ko'ra 2023-yil 30-sentabrdan majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari 461 552 mln. so'mni, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari esa 5 212 729 mln. so'mni tashkil etgan. Umumiy sug'urta sohaidagi sug'urta mukofotlari miqdori 5 674 281 mln. so'mga yetgan (1-rasm).

2024-yil 30 sentabrdan esa majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari 432 088 mln. so'mga kamaygan, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha mukofotlar esa 6 414 735 mln. so'mga ko'tarilgan. Umumiy sug'urta mukofotlari miqdori 6 846 823 mln. so'mni tashkil etgan. 1-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda 2024-yilda ixtiyoriy sug'urta bo'yicha mukofotlar sezilarli darajada o'sganini, majburiy sug'urta bo'yicha mukofotlar esa kamayganini ko'rish mumkin.



1-rasm. Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlarida umumiy sug'urta mukofotlari ko'rsatkichlari, mln. so'mda¹²

Umumiy sug'urta mukofotlari ko'rsatkichlari tahlili 2023 va 2024-yillar uchun sug'urta tashkilotlarining faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

¹² <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im> - ILMA ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

30.09.2023-yilda jami sug‘urta mukofotlari 5 912 201 mln. so‘mni tashkil etgan, buning 96%ini umumiy sug‘urta tashkilotlari tashkil etgan (4-jadval).

4-jadval

Umumiy sug‘urta mukofotlari ko‘rsatkichlari tahlili, mln. so‘mda¹³

Ko‘rsatkichlar	30.09.2023		30.09.2024		O‘zgarish, %
	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	5 912 201	100%	7 013 977	100%	+18,6%
Umumiy sug‘urta sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, sh.j.	5 674 281	96%	6 846 823	98%	+20,7%
- <i>majburiy sug‘urta</i>	461 552	8%	432 088	6%	-6,4%
- <i>ixtiyoriy sug‘urta</i>	5 212 729	88%	6 414 735	91%	+23,1%
Hayotni sug‘urta qilish sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, sh.j.	237 921	4%	167 154	2%	-29,7%
- <i>majburiy sug‘urta</i>	21 278	0%	37 329	1%	+75,4%
- <i>ixtiyoriy sug‘urta</i>	216 642	4%	129 825	2%	-40,1%

2024-yilga kelib umumiy sug‘urta mukofotlari 7013977 mln. so‘mga yetib, 18,6%ga o‘sish kuzatilgan. Shuningdek, umumiy sug‘urta tashkilotlarining faoliyati ham o‘sgan va ularning mukofotlari 20,7%ga oshgan. Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlari 2023-yilda 461 552 mln. so‘m bo‘lgan, 2024-yilda esa 432 088 mln. so‘mga kamaygan, bu 6,4%ga pasayishni ko‘rsatadi. Ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlari esa 2023-yilda 5 212 729 mln. so‘m bo‘lib, 2024-yilda 6 414 735 mln. so‘mga oshgan, bu 23,1%ga o‘sishni bildirib, ixtiyoriy sug‘urta bozorining rivojlanganini ko‘rsatadi. Hayotni sug‘urta qilish sohasidagi sug‘urta mukofotlari 2023-yilda 237 921 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilda 167 154 mln. so‘mga kamaygan, bu 29,7%ga pasayishni bildirib, bozordagi talabi pasayganini ko‘rsatadi. Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlari esa 2024-yilda 37 329 mln. so‘mga ko‘tarilgan, bu 75,4%ga o‘sishni bildirgan. Biroq, ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlari 2024-yilda 129 825 mln. so‘mga kamaygan, bu 40,1%ga pasayishni ko‘rsatadi. Ushbu tahlil sug‘urta sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlarni va bozor talablarining o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi.

30.09.2023-yilda umumiy sug‘urta to‘lovlari 1 375,65 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 1 633,85 mlrd so‘mga yetib, 18,8%ga o‘sgan. 2024-yilda barcha sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta to‘lovlari 1 536,22 mlrd so‘mga oshgan va ularning umumiy sohaga nisbatan ulushi 94%ga yetgan, bu 49,7%ga o‘sishni ko‘rsatadi. Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari 2023-yilda 179 611 mln. so‘m bo‘lgan, 2024-yilda esa 263 563 mln. so‘mga ko‘tarilgan, bu 46,7%ga o‘sishni ko‘rsatadi. Ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlari 2023-yilda 846 709 mln. so‘mdan 1 272 655 mln. so‘mga oshgan, ya’ni 50,3%ga o‘sish kuzatilgan. Hayotni sug‘urta qilish sohasidagi sug‘urta to‘lovlari 2023-yilda

¹³ <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im> - ILMA ma’lumotlari.

349 336 mln. so‘mni tashkil etgan, 2024-yilda esa 97 637 mln. so‘mga kamaygan, bu 72,1%ga pasayishni ko‘rsatadi. Majburiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar 2024-yilda 10 076 mln. so‘mga ko‘tarilgan, bu 10%ga o‘sishni bildirsa, ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar 340 175 mln. so‘mdan 87 561 mln. so‘mga kamaygan, bu 74,3%ga kamayishni anglatadi. Bu ko‘rsatkichlar sug‘urta bozorining dinamikasini va aholining turli sug‘urta turlariga bo‘lgan talabini aniq ko‘rsatib beradi (5-jadval).

5-jadval

Sug‘urta to‘lovlar hajmi, mln. so‘mda¹⁴

Ko‘rsatkichlar	30.09.2023		30.09.2024		O‘zgarish, %
	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	1 375 656	100%	1 633 854	100%	+18,8%
Umumiy sug‘urta sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, sh.j.:	1 026 320	75%	1 536 217	94%	+49,7%
- majburiy sug‘urta	179 611	13%	263 563	16%	+46,7%
- ixtiyoriy sug‘urta	846 709	62%	1 272 655	78%	+50,3%
Hayotni sug‘urta qilish sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, sh.j.:	349 336	25%	97 637	6%	-72,1%
- majburiy sug‘urta	9 161	1%	10 076	1%	+10,0%
- ixtiyoriy sug‘urta	340 175	25%	87 561	5%	-74,3%

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati yo‘nalishlari yuzasidan 30.06.2023-yilda jami investitsiyalar 5 189 971 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 30.06.2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 6 111 360 mln. so‘mga ko‘tarilgan, bu 17,8%ga o‘sishni ko‘rsatadi (6-jadval).

6-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati yo‘nalishlari tahlili¹⁵

Ko‘rsatkich nomi	30.06.2023		30.06.2024		O‘zgarish, %
	mln. so‘mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so‘mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, sh.j.	5 189 971	100%	6 111 360	100%	+17,8%
Depozitlar (omonatlar)	3 292 385	63,4%	4 052 224	66,3%	+23,1%
Qimmatli qog‘ozlar	1 267 653	24,4%	1 288 737	21,1%	+1,7%
Zaymlar	51 140	1,0%	76 028	1,2%	+48,7%
Ko‘chmas mulk	425 570	8,2%	598 136	9,8%	+40,5%
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	119 323	2,3%	88 210	1,5%	-26,1%
Boshqa investitsiyalar	33 900	0,7%	8 025	0,1%	-76,3%

Depozitlar (omonatlar) ulushi 2023-yilda 63,4% bo‘lgan, 2024-yilda esa 66,3%ga yetgan, bu depozitlarga bo‘lgan talabning ortishiga ishora qiladi. Qimmatli qog‘ozlar bilan investitsiyalar 2023-yilda 1 267 653 mln. so‘m bo‘lgan, 2024-yilda esa 1 288 737 mln. so‘mga ko‘tarilgan, bu 1,7%ga o‘sishni ko‘rsatadi.

¹⁴ <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im - ILMA ma'lumotlari>.

¹⁵ <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im - ILMA ma'lumotlari>.

Zaymlar bo'yicha investitsiyalar 2023-yilda 51 140 mln. so'mdan 76028 mln. so'mga ko'tarilgan, bu 48,7%ga o'sishni anglatadi. Ko'chmas mulkka bo'lgan investitsiyalar 2023-yilda 425 570 mln. so'm, 2024-yilda esa 598 136 mln. so'mga yetgan, bu 40,5%ga o'sishni ko'rsatadi. Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki 2023-yilda 119,323 mln. so'mdan 88 210 mln. so'mga kamaygan, bu 26,1%ga pasayishni anglatadi. Boshqa investitsiyalar bo'yicha 2023-yilda 33 900 mln. so'm bo'lgan, 2024-yilda esa 8 025 mln. so'mga kamaygan, bu 76,3%ga kamayishni ko'rsatadi.

2023–2025-yillar davomida Apex Insurance AJ 2023-yil 7-avgustdagি 88 mlrd so'mlik qo'shimcha aksiya emissiyasi orqali 2023-yil 7 dekabrd 340 mlrd so'mga yetkazilgan. Yuqori investitsion jozibadorlik va bozor talabi asosida yana 5 ta qo'shimcha emissiya natijasida 2025-yil 27-martda ustav kapitalini 710 mlrd so'mgacha oshirilgan (7-jadval).

7-jadval

Apex Insurance AJning ustav kapitalini oshirish tendensiyasi

Qo'shimcha aksiya emissiya qilinganligi ¹⁶		Ustav kapitalining oshirilganligi ¹⁷	
Qo'shimcha emissiya qarori	Qo'shimcha aksiyalar emissiyasi, mlrd so'mda	Oshirilgan sana	Ustav kapitali hajmi, mlrd so'mda
07.08.2023	88	07.12.2023	340
16.11.2023	35	29.12.2023	375
06.02.2024, 08.05.2024	30, 80	04.09.2024	485
12.09.2024	85	18.10.2024	570
18.11.2024	95	07.03.2025	665
17.02.2025	45	27.03.2025	710

2023-2025-yillar mobaynida Apex Insurance AJ tomonidan to'langan dividendlar dinamikasi kompaniyaning barqaror va ishondchli dividend siyosatiga amal qilib kelayotganini ko'rsatadi (8-jadval).

8-jadval

Apex Insurance AJ tomonidan to'langan dividendlar dinamikasi¹⁸

Dividend e'lon qilish sanasi	Jami hisoblangan dividend, mlrd so'mda	Hisoblangan summaga nisbatan to'langan dividend, foizda	To'lov shakli
14.02.2023	80	100	Pul mablag'lari shaklida
04.09.2023	88	100	
07.12.2023	35	100	
06.03.2024	25,125	100	
12.06.2024	80	100	
19.09.2024	85	100	
06.12.2024	95,19	100	
07.03.2025	45,22	100	

2023-yil 14-fevralda 80 mlrd so'm miqdoridagi dividend e'lon qilinib, 100% miqdorda pul mablag'lari shaklida to'langan. Keyingi to'lovlar ham to'liq amalga oshirilib, 4-sentabrd 88 mlrd so'm, 7-dekabrd 35 mlrd so'm, 2024-yil 6-martda 25,125 mlrd so'm miqdorida to'langan. 2024-yilning ikkinchi yarmida esa

¹⁶ Openinfo.uz portalida AJ tomonidan e'lon qilingan 25-muhim faktlar asosida dissertant tomonidan tuzildi.

¹⁷ Aksiyadorlik jamiyatni ustavlari asosida dissertant tomonidan shakllantirildi.

¹⁸ Openinfo.uz portalida AJ tomonidan e'lon qilingan 42-muhim faktlar asosida dissertant tomonidan tuzildi.

dividendlar hajmi keskin o'sib, 12 iyunda 80 mlrd so'm, 19 sentabrda 85 mlrd so'm va 6 dekabrda 95,19 mlrd so'mni tashkil etgan. 2025-yil 7 martdag'i e'lon qilingan oxirgi dividend 45,22 mlrd so'm bo'lib, u ham 100% to'langan.

Apex Insurance AJda bozor talabi asosida AJ ustav kapitalini oshirib borish maqsadida investitsion jozibadorlikni ta'minlash va aksiyadorlar manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan choraklik dividendlarga asoslangan dividend siyosati yuritish o'tgan. Mazkur taklif asosida aksidorlik jamiyati choraklik dividend to'lovlariga amaliyotiga o'tildi va ustav kapitali 710 milliard so'mga yetkazilgan. Mazkur amaliyot boshqa sug'urta kompaniyalarga ham tatbiq qilinishi maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning uchinchi bob'i "**Sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish masalalari**", deya nomlangan holda O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari rivojlanishiga va ularda moliyaviy munosabatlari ko'lamini kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanib, ularni hal qilishga doir takliflar ilgari surilgan. Shuningdek sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish orqali biznes rivojini ta'minlashga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Sug'urta kompaniyalari faoliyati moliya bozori ekotizimida va insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi tarixan ham ma'lum bo'lsada, respublikamizda sug'urta bozori rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda. Sug'urta bozori muhim ishtirokchilari sanaladigan sug'urtalovchilar, ya'ni sug'urta kompaniyalari sonining o'zgarish dinamikasiga e'tibor qaratsak, quyidagi tendensiyaga guvoh bo'lamiz (9-jadval).

9-jadval

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari soni va ular ustav kapitali miqdori o'zgarishi¹⁹

Ko'rsatkichlar	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Sug'urta tashkilotlari soni soni	42	41	38	33
<i>Sh.j. hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	8	7	5
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln so'mda)	1 590 000	1 884 111	2 298 572	2963695

